

EKOSHAHARNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Xoshimova Fazilat Jamshid qizi

Respublika Ixtisoslashgan Dizayn maktabi

Arxitektura bo'limi maxsus fan o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13923146>

Shahar sivilzatsiyaning rivojlanish manbai hisoblanib, ayni vaqtda atrof- muhit ekologiyasi buzilishining sababchisi ham hisoblanadi. Shuning uchun ham hayotiy faoliyatni taminlashda faqat ekologik texnologiyalardan foydalanuvchi shaharlarni yaratish juda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shaharlarni "ekologik" qayta qurish kelajakdagi rivojlanishning zaruriy talabi bo'lishi lozim. Shaharlar rivojlanishi tabiatga zarar yetkazmasdan, inson hayotiga yuqori sifatlarda xizmat ko'rsatsishi lozim. Ekoshahar bu- atrof-muhitga ta'sir etishini hisobga olib loyihalangan mustahkam, ustuvor, turg'un shahardir. Mazkur shaharda yashovchi aholi energiyadan, suv va oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishni minimallashtiradi, issiqlikning behuda sarflanishiga, havoni karbonat anhidrid ifloslanishiga umuman yo'l qo'yilmaydi. Birinchi marotaba «ekoshahar» atamasini 1987-yilda Richard Register «Sog'lom kelajak uchun shahar qurilishi» kitobida ishlatdi. Kelajak shahar o'zini atrof-muhitga minimal darajada bog'liq holda ta'minlab, yangilανuvchi manbalar yordamida energiya ishlab chiqaradi. Ekoshahar aholisining asosiy intilishi-uglerod isini qisqartirishdir.

Ekoshaharlarni amaliyotga tatbiq etishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- gaz, suyuqlik va qattiq holatdagi chiqindilarni texnologik jarayonlarda maksimal qayta ishlatadigan, yopiq shakl sikliga ega bo'lgan sanoat korxonalarining ishlashi;
- enrgiya tejuvchi texnologiyalarni qo'llash;
- maishiy chiqindilarni qayta ishlashni ta'minlash;
- ekologik avtomobil transportidan foydalanish;
- kam qavatli uylarni qurish, yer osti muhitini omborlar, garajlar, bekatlar, issiqlik energiyasi akkumulyatorlarini o'rnatish uchun foydalanish, bino va inshootlar tekisligini gorizontal va vertikal

ko'kalamzorlashtirish (tom gazonlar, devor-gazonlar, yashil to'siqlar, yoritish uskunalari).

Ustuvor rivojlanish inson salomatligi va ta'limni rivojlantirishi, biologik xilma-xillikni va uning komponentlaridan foydalanishni, ma'naviy boylikka ehtiyotkorona munosabatni, normal hayot kechirish va kelajak avlodning hayoti uchun standart me'yorlarga mos keluvchi havo, suv, o'rmon, o'simlik va tuproqning sifatini talab qiladi.

Ekoshaharlarni ekologik talablar asosida loyihalash va qurishda ularni shakllantirishning quyidagi tamoyillari aniqlandi:

- hajmiy-rejaviy, konstruktiv va muxandisona yechimlarning ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi mobil va egiluvchan shakllaridan foydalanish;
- binolar hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarning texnologiya va jihozlarning ko'p maqsadli yangilanishini ta'minlashlarga dosh beruvchanligini oldindan bilib loyihalash;
- ichki ishlab chiqarishg muhitining psixologik, fiziologik va gigiyenik qulayligi.

Ekoustvor muhitning rivojlanish an'analari, ekostandartlar tavsiya etadigan, turli ekologik yechimlarni qo'llovchi ko'plab loyihalarning yaratishiga olib keldi. Binolarning ekosertifikatlashning barcha punktlari ham tushunarli va arxitektura sohasida osonlik bilan foydalanarli emas. Shubhasiz, barcha ko'rinishni loyihalashda binolarning ekologiyaligini oshirishning, suv tarmog'i va isitish sohasidagi muhandislarning birgalikda ishlash davomida arxitekturaviy fazoviy yechimlar va texnologik tadbirlarni ratsional uyg'unlashtirish natijasida erishiladi.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelinadi: Shahar iqtisodiy dinamikasini modellashtirishda ekologik tamoyillarni hulosa olish kerak, chunki ekologik hisob-kitoblar shaharning ustuvor rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shahar rivojlanishi modellari tizimini real va ekspert ma'lumotlari asosidagi information ta'minlash, "ekoshahar" modellar tizimini O'zbekiston shaharlariga qo'llash imkonini beradi.

References:

1. Isamuxamedova D.U., Mirzayev M.K. «Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi». O'quv qo'llanma, Toshkent, 2015 y.
2. ВЕСТНИК ИпГТУ №5(45) -2010